



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TOJIKISTON RESPUBLIKASI BILAN IQTISODIY HAMKORLIGI TARIXI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Jomuratov Diyorbek

Ilmiy raxbar S.Shukurov

Annotatsiya. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik uzoq tarixga ega bo'lib, ikki davlatning savdo, ishlab chiqarish va investitsiya sohalarida mustahkam aloqalar o'rnatganini ko'rsatadi. Tarixan, o'zbek va tojik xalqlari madaniy va iqtisodiy jihatdan yaqin bo'lib, bu hamkorlik mustaqillikdan keyin yangi bosqichga ko'tarildi. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasida qo'shma korxonalar tashkil etilib, savdo aloqalari kengaymoqda. Masalan, Tojikiston investitsiyalari asosida O'zbekistonning Sirdaryo viloyatida alyumin kabel ishlab chiqaruvchi zavod ishga tushirilgan, bu esa ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlikning muhim natijalaridan biridir. Shuningdek, O'zbekistonda Tojikiston kapitali ishtirokida avtomobil va maishiy texnika ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston-Tojikiston iqtisodiy hamkorligi, savdo aloqalari, investitsiya loyihalari, qo'shma korxonalar, iqtisodiy taraqqiyot, transport va logistika, sanoat hamkorligi, energetika sohasida hamkorlik, qishloq xo'jaligi aloqalari, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar, madaniy hamkorlik, o'zaro investitsiyalar.

Аннотация. Экономическое сотрудничество между Узбекистаном и Таджикистаном имеет долгую историю, демонстрируя прочные связи между двумя странами в сферах торговли, производства и инвестиций. Исторически узбекский и таджикский народы культурно и экономически близки, и после обретения независимости это сотрудничество вышло на новый уровень. В последние годы между двумя странами создаются совместные предприятия, расширяются торговые связи. Например, на инвестиции Таджикистана в Сырдарьинской области Узбекистана



запущен завод по производству алюминиевого кабеля, что является одним из важных результатов двустороннего экономического сотрудничества. Кроме того, в Узбекистане функционируют предприятия по производству автомобилей и бытовой техники с участием таджикского капитала.

Ключевые слова: экономическое сотрудничество Узбекистан-Таджикистан, торговые связи, инвестиционные проекты, совместные предприятия, экономическое развитие, транспорт и логистика, промышленное сотрудничество, сотрудничество в области энергетики, связи в сельском хозяйстве, образование и научные исследования, культурное сотрудничество, взаимные инвестиции.

Annotation. Economic cooperation between Uzbekistan and Tajikistan has a long history, demonstrating strong ties between the two countries in the fields of trade, production, and investment. Historically, the Uzbek and Tajik peoples have been culturally and economically close, and this cooperation reached a new level after independence. In recent years, joint enterprises have been established between the two countries, expanding trade relations. For example, an aluminum cable production plant was launched in Uzbekistan's Syrdarya region with investments from Tajikistan, which is one of the significant outcomes of bilateral economic cooperation. Additionally, automotive and household appliance manufacturing enterprises with Tajik capital are operating in Uzbekistan.

Keywords: Uzbekistan-Tajikistan economic cooperation, trade relations, investment projects, joint enterprises, economic development, transport and logistics, industrial cooperation, energy sector cooperation, agricultural ties, education and scientific research, cultural cooperation, mutual investments.

Kirish. O'zbekiston — Tojikiston munosabatlari — Tojik va o'zbek xalqlarining yashash sharoiti, urf-odatlar, turmush tarzi bir-biriga nihoyatda yaqin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, o'zbek va tojik xalqlari ikki tilda gaplashadigan bir xalq. Bu 2 xalqning o'tmishda



birgalashib, o'z ozodligi, erki uchun kurashgani, o'lmas me'moriy yodgorliklari va san'at durdonalarini yaratgani tarixdan ma'lum. Asrlar davomida ko'pgina tojik va o'zbek san'atkorlari biribiriga ustoz, biribiriga shogird bo'lib ijod qilib kelishgan[1].

Ikki buyuk arbob — Jomiy bilan Navoiyning do'stligi va hamkorligi tojik hamda o'zbek adabiy va madaniy aloqalari tarixidagi yorqin sahifadir. Jomiy va Navoiy boshlab bergan zullisonaynlik an'alarini Mashrab, Turdi, Nodira, Furqat, Zavqiy, Anbar otin, Asiriy, Ayniy, Hamza va boshqalar davom ettirdilar. Hamza tojik tilida ham g'oyaviy badiiy jihatdan yetuk she'rlar yaratishi bilan barobar o'zining drama truppasi bilan Tojikistonning shahar va tumanlarida tomoshalar ko'rsatdi. Sadriddin Ayniy "Qullar" romanini o'zbek tilida yaratdi va tojik hamda o'zbek tilida samarali ijod qilib, o'zining ham badiiy, ham ilmiy asarlari bilan 2 xalq madaniyatini rivojlantirishda katta rol o'ynadi. 20-yillar oxiridan Tojikiston teatrlarida Hamzaning "Boy ila xizmatchi", K. Yashinning "Gulsara", F. Zafariyning "Halima", Xurshidning "Farhod va Shirin", keyinroq S. Abdullaning "Tohir va Zuxra", Uyg'un va I. Sultonning "Alisher Navoiy", Tuyg'unning "Muhabbat" va boshqa pyesalari sahnalashtirildi. Ayni vaqtda tojik dramaturglaridan S. Ulug'zodaning "Gavhari shamchiroq", S. G'anining "To'y", G'. Abdulloning "Sharq sadosi" kabi pyesalari o'zbek teatrlari sahnalarida namoyish qilindi.[2]

Muhokama va natijalar. Tojik-o'zbek madaniy va adabiy aloqalarning ravnaq topishida badiiy tarjimachilik ham muhim ahamiyatga ega. S. Ayniyning 8 jildli asari, A. Lohutiyning "Devon"i, M. Tursunzodaning deyarli barcha asarlari, Mirshakarning "Biz Pomirdan keldik", "Oltin qishloq", "Tog' qizining ishq", J. Ikromiyning "Olov qizi", "Buxoroning o'n ikki darvozasi", S. Ulug'zodaning "Yoshligimiz tongi", "Vos'ye", R. Jalilning "Po'lod va Gulro'", "Sho'rob", F. Niyoziyning "Vafo" asarlari va boshqalarning she'riy, nasriy asarlari o'zbek tilida nashr etilgan. Ayni vaqtda Hamza, A. Qodiriy, F. G'ulom, Oybek, A. Qahhor, G'ayratiy, H. Olimjon, Sh. Rashidov, Zulfiya, A. Muxtor, R.



Fayziy, S. Abdulla, E. Vohidov, A. Oripov, G. Jurayeva, B. Boyqobilov va boshqalarning asarlari tojik tiliga tarjima qilinib, Tojikistonda nashr etilgan. O'zbek-tojik adabiy va madaniy aloqalarining ravnaq topishida Tojikistonda yashab o'zbek tilida ijod qilgan shoir va yozuvchilar: Ashirmat, M. To'lqin, M. Ostonskiy, O. Jamol, J. Toshmatov, Z. Do'stmatov, K. Mamajonov, Sh. Sattor, A. Usmon, X. Qurbonova, S. Nishonova, J. Ergash, U. Umarov, A. Zuhur va b.ning ham hissiyasi bor[3].

Ushbu ijtimoiy-tarixiy an'ana har 2 davlat milliy mustaqillikni qo'lga kiritgach, yangicha mazmun kasb etdi. O'zbekiston Tojikistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishda va uni ijobiy yechimini topishda sezilarli mavqeni egalladi[4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1992-yil sentyabrda BMT ning Bosh kotibiga murojaatnoma yo'llab, xalqaro hamjamiyat e'tiborini Tojikiston muammolariga qaratib bu muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga chaqirdi. Tojikistonda tinchlik jarayonining amalga oshishi va ahdlashuvlarning barcha bosqichida O'zbekiston rasmiy kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2000-yil 14—15 iyunda I. A. Karimovning rasmiy tashrif bilan Dushanbe shahrida bo'lishi, E. Rahmonovning Toshkentda bo'lishi o'zbek-tojik munosabatlarining yangi pog'onaga ko'tarilishidan dalolat edi. 1998-yil yozda O'zbekistonda Tojikiston Respublikasining madaniyat kunlari bo'lib o'tdi. 1995-yil Toshkent shahrida Tojikiston Respublikasining, 2000-yil Dushanbe shahrida O'zbekiston Respublikasi elchixonasi ochilib, ular davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalarni muvofiqlashtirish yo'lida xizmat qilmoqda. Keyingi vaqtda O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikistonning savdo-iqtisodiy aloqalari birmuncha rivojlandi. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida Tojikistonning ulushi 2003-yilda 2002-yilga nisbatan 24,7% oshdi va 2,2% ni tashkil etdi[5].

Tojikistonda 1992–1997-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etdi, uning qo'shni mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1997-yilda Moskvada Tojikistonning rasmiy hokimiyati bilan



muxolifat kuchlar o'rtasida tuzilgan milliy murosa haqidagi shartnomaga erishilgach, Tojikistonning qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari yana tiklandi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil yanvarda Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha qo'shma axborot imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanib kelmoqda. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi ham yil sayin ortib bordi. 2017-yil O'zbekiston va Tojikiston munosabatlarida ham yangi sahifa ochildi. Shu yil may oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan AQSh va arabmusulmon davlatlari sammitida ishtiroki doirasida Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi. Uchrashuv chog'ida ko'plab manfaatli kelishuvlarga erishildi. 2017-yilning aprelida 25 yillik tanaffusdan so'ng Dushanbe va Toshkent o'rtasidagi aviaqatnov yana tiklandi[6].

Xulosa. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik tarixiy ildizlarga ega bo'lib, so'nggi yillarda yanada rivojlanib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi savdo, investitsiya va ishlab chiqarish sohalaridagi aloqalar mustahkamlanib, qo'shma korxonalar soni ortib bormoqda. Energetika, transport va qishloq xo'jaligi kabi strategik tarmoqlarda hamkorlikning kengayishi mintaqaviy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, madaniy va ilmiy hamkorlik ikki xalqning o'zaro aloqalarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Ushbu iqtisodiy hamkorlik kelajakda yanada kengayishi va O'zbekiston hamda Tojikiston o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashi kutilmoqda. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik nafaqat savdo va investitsiyalarni rivojlantirish bilan cheklanmay, balki mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qilmoqda. Ikkala mamlakat o'rtasida sanoat hamkorligi rivojlanib, qo'shma korxonalar soni ortib bormoqda.



Transport va logistika infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi ikki davlat o'rtasidagi tovar almashinuvi hajmini oshirib, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam bermoqda. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va energetika sohalarida hamkorlik natijasida barqaror ta'minot tizimlari shakllanib, ikki mamlakat aholisining farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ilmiy va ta'lim sohalaridagi aloqalar esa yangi innovatsion loyihalarning amalga oshirilishiga zamin yaratmoqda. Kelajakda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yanada kengayib, qo'shma investitsiyalar hajmi oshishi, yangi texnologiyalar tatbiq etilishi va innovatsion loyihalar rivojlanishi kutilmoqda. Ushbu hamkorlik ikki xalqning o'zaro aloqalarini yanada mustahkamlab, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Astanayev Qulmaxammat Sanayevich** – *“O'zbekiston va mintaqaviy iqtisodiyot: iqtisodiy integratsiya, afzalliklar va xavflar”*.
2. **Baxtiyor Usmonov** – *“O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy sohadagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishi”*.
3. **O'zbekistonning rivojlangan davlatlar bilan iqtisodiy hamkorligi** – *“Ilmiy tadqiqotlar va tahlillar”*.
4. Akbarov I.T. Xalqaro transport tizimi: uning rivojlanish istiqbolini baholashning matematik modeli // «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi», №4, Toshkent, 2000, – S.56-60.
5. Alimova D.A., Ilxomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2018. – 324 b.
6. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2015. – 672 b.